Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralari	650
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
Ахмедов Нумон	
Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqilidiy usul misolida)	661
Jo'rayeva Dilafruz Nuriddinova	
O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
Masharipova Miyassar Ichanovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
Shaxnoza To'xtiyarova	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
Xudaynazarova Ug'ilo'y Sharifovna	
Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
E'zozxon Qobilova	
Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matnni o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizatriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПР	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	



PROKRASTINATSIYA FENOMENINING RETROSPEKTIV TALQINI

M. L. Aripova

O'zDJTU

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqola shaxs faoliyatida uchraydigan murakkab psixologik hodisa – prokrastinatsiya (kechiktirish) fenomeni bo'yicha faylasuflar va psixolog olimlarning ilmiy qarashlarini retrospektiv tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda kechiktirishning mohiyati, shaxs xususiyatlari bilan bog'liqligi, faoliyat samaradorligiga ta'siri hamda fenomenning tarixiy-talqin jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: shaxs, prokrastinatsiya, fenomen, determinant, muammo, retrospektiv tahlil, me'yorlar, qadriyatlar, kechiktirish, o'zini baholash, shaxsiy xususiyat, shart-sharoitlar.

Abstract: This article provides a retrospective analysis of philosophical and psychological perspectives on the phenomenon of procrastination – a complex psychological process observed in human behavior. The study examines the essence of procrastination, its relation to personal characteristics, its impact on performance efficiency, and historical as well as theoretical approaches to understanding this phenomenon.

Key words: personality, procrastination, phenomenon, determinant, problem, retrospective analysis, norms, values, delay, self-esteem, personal characteristic, conditions.

Аннотация: Статья посвящена ретроспективному анализу взглядов философов и психологов на феномен прокрастинации – сложное психологическое явление, проявляющееся в деятельности личности. В работе раскрываются сущность прокрастинации, её связь с личностными особенностями, влияние на эффективность деятельности, а также историко-теоретические подходы к её изучению.

Ключевые слова: личность, прокрастинация, феномен, детерминант, проблема, ретроспективный анализ, нормы, ценности, задерживание, самооценка, личностная особенность, условия.

KIRISH

Shiddatli raqobatning kuchayishi bilan tavsiflanadigan bugungi jamiyatda har qanday korxona va muassasalardan mavjud imkoniyatlar hamda moddiy-ma'naviy resurslardan iloji boricha oqilona va samarali foydalanish taqozo etiladi. Tashkilot va korxonalarning faoliyati samaradorligini oshirish usullaridan biri xodimlarning individual va jamoaviy mehnatini optimallashtirish hisoblanadi. Bu esa insonga, ayniqsa korxona xodimlariga bosim ko'rsatuvchi va prokrastinatsiya (bajariladigan muhim ishlarni orqaga surish, kechiktirish) holatlarining ortishiga xizmat qiluvchi kasbiy majburiyatlar, me'yorlar va talablar sonining ko'payishiga olib keladi. Holbuki, xalqimizda ming yillik hayotiy tajribalardan o'tgan "Bugungi ishni ertaga qo'yma", "Qolgan ishga qor yog'ar" kabi ajoyib maqollar bor. Nafaqat o'zbek tilida, balki boshqa har qanday millat tilida ham kechiktirishning salbiy jihatlari va ta'siri haqida juda ko'plab maqol va matallarni keltirish mumkin. Hozirgi zamonaviy sharoitda inson hayotining barcha sohalarida sodir bo'layotgan muhim o'zgarishlar psixologiya fanida ilgari o'rganilmagan va hali muhokama qilinmagan muammolarning keng tarqalishiga olib keldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bunday dolzarb psixologik muammolardan biri prokrastinatsiyadir, ya'ni bajariladigan muhim ishlarni orqaga surish va kechiktirish holatlaridir. Individ yoki shaxs faoliyatidagi prokrastinatsiya (kechiktirish) fenomeni murakkab psixologik hodisa bo'lib, u yoki bu vazifani, jumladan shoshilinch ishlarni bajarishni yoki muhim qaror qabul qilishni (o'ylamagan yoki biror aniq maqsadni ko'zlamagan holda yoki atayin) orqaga surish, ya'ni kechiktirishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muhim ishlarni bajarishni “keyinroqqa” qoldirish muammosi bundan ming yillar oldin ham mavjud bo'lgan. “Keyinga qoldirish” muammosi haqidagi ilk eslatmalar miloddan avvalgi 800-yillarda yashab o'tgan yunon shoiri Gesiod asarlarida uchraydi. U o'zining “Ishlar va kunlar” nomli asarida insonning faqat mehnat tufayligina muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini ta'kidlab, bajariladigan muhim ishlarni hech qachon kechiktirmaslikka, o'z vaqtida bajarishga da'vat etadi, chunki dangasalik qashshoqlikka olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqinini yoritish maqsadida mavjud ilmiy manbalarni tizimli yig'ish, saralash va tahlil qilishga asoslandi. Ma'lumotlar qadimgi yunon adabiyotlari, diniy manbalar, psixologik maktablar, zamonaviy empirik tadqiqotlar hamda klassik nazariy ishlanmalarni qamrab olgan ilmiy adabiyotlarni kontent-analiz qilish orqali olindi. Shu bilan birga, Gesiod, Fukidid, Siseron kabi antik mualliflarning qarashlari, XX asr psixologlarining nazariyalari hamda zamonaviy psixometrik tadqiqotlar bo'yicha xalqaro maqolalar bibliografik tahlil usuli orqali o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tematik kodlash asosida guruhlanib, kechiktirishning tarixiy, psixologik va ijtimoiy determinantlarini aniqlash uchun qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, prokrastinatsiyani tushuntiruvchi nazariy yondashuvlar, psixometrik baholash metodikalari va ularning ilmiy asoslari mantiqiy tahlil yordamida solishtirildi. Umumlashtirilgan natijalar fenomenning shakllanish manbalari, rivojlanish omillari va ilmiy talqinlarining evolyutsiyasini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Procrastination (kechiktirish) so'zi birinchi marta Afinada bizning eramizdan oldingi yillarda yozilgan asarlarda ham uchraydi (miloddan avvalgi 44-yillar). Bu so'zni ilk marta Fukidid ishlatgan bo'lib, u prokrastinatsiya (kechiktirish)ni insonning eng salbiy xususiyatlaridan biri sifatida ta'riflaydi va u urush boshlanishini kechiktirish haqida gap ketganda foydali bo'lishi mumkinligini e'tirof etadi. Shuningdek, Mark Tulliy Siseron ham kechiktirish insonning kechirib bo'lmaydigan salbiy sifatlaridan biri ekanini eslatib, bu sifatning hatto eng yuqori hokimiyat vakillariga ham xos ekanligidan afsuslangan (miloddan avvalgi 40-yillar). Siseron har qanday ishda sekinlik nomaqbul ekanligini e'tirof etadi.

Prokrastinatsiya hodisasining ildizlari insonning tub mohiyati va tabiatida yotadi. Diniy matnlarda kechikish katta gunohlardan biri sifatida qoralanadi. Hadislarda “Tongda uxlashlik rizqni qiyadi” deyilgan.

“Prokrastinatsiya” tushunchasining etimologiyasi ancha keng va chuqur ma'noga ega bo'lib, inglizcha procrastination so'zi o'zbekchada “kechiktirish”, “ishni bajarishni orqaga surish”, “sekinlashtirish” ma'nolarini anglatadi. Aslida procrastination so'zi ham lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, uning lotincha varianti procrastino – “kechiktirmoq”, “ishni orqaga surmoq”, “cho'zmoq” ma'nolarini bildiradi. U crastinus (“ertangi”, “kelajak”) so'zining o'zagi va pro old qo'shimchasi (“oldinga”, “o'rniga”, “keyingi”) birikmasidan hosil bo'lgan.

Umuman, “prokrastinatsiya” atamasi ilmiy muomalaga 1977-yilda Paul Ringenbach (Pol Ringenbax) tomonidan kiritilganligi va bu tushuncha ilk marotaba uning “Asrlar bo'ylab kechikish: aniq tarix” nomli kitobida ilmiy talqin etilgani ko'plab olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Qizig'i shundaki, uning bu ishi, to'g'rirog'i, ilmiy asari hech qachon to'liq tugallanmaganligi qayd etiladi. O'sha yillari A. Ellis va V. J. Nausning “Kechikishni yengish” nomli kitobi nashr etildi. U kechiktirish fenomeni bo'yicha klinik kuzatuvlar natijalarini bayon etadi va topshirilgan vazifalarni keyingi sanaga qoldirish uchun kognitiv tushuntirish berishga harakat qildi. Bundan tashqari, prokrastinatsiya tushunchasi deyarli o'n yil oldin psixolog O. R. Lindsli (Ogden Richardson Lindsley) ning “An Evaluation of Lindsley New Measure of TV Viewing Behavior – Rejoinder to Sicher – Evaluation of Procrastination” nomli ilmiy maqolasida ham tilga olingan.

Olti yil o'tgach, J. Burka va L. Yuyenlarning “Kechiktirish: bu nima va u bilan qanday kurashish kerak?” deb nomlangan ilmiy-ommabop kitobi nashr etildi. Psixoterapevt sifatidagi amaliy kuzatishlarga asoslanib yozilgan ushbu kitobda ular kechiktirish holati (fenomeni)ni o'z-o'zini past baholash va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquvga asoslangan murakkab psixologik muammo sifatida ta'rifladilar.

Prokrastinatsiya hodisasi muammosining dolzarbligi uning psixologiya fanida yanada faol rivojlanishiga olib keldi. Prokrastinatsiya zamon mahsuli emas, balki shaxs xususiyati, uning xulq-atvori, ijtimoiy muhit shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liq hodisadir. Bu atamaning o'zi fanga P. Ringenbax ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasi o'laroq kiritilgan bo'lsa-da, mazkur psixologik hodisaning o'zi 1940-yillardan boshlab xorijiy mamlakatlarda keng muhokamalarga sabab bo'lib, chuqur o'rganila boshlangan va hanuzgacha dolzarbligini yo'qotmagan. XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab prokrastinatsiya fenomenini o'rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlar va analitik sharhlar paydo bo'la boshladi.



Kechiktirishni tashxislash uchun Aitken Procrastination Inventory (API), Procrastination Assessment Scale – Student (PASS), General Procrastination Scale (GPS), Adult Inventory of Procrastination (AIP) kabi bir qator metodikalar ishlab chiqildi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, 1980-yillarning o'rtalarida G'arb psixologlari prokrastinatsiya hodisasini ilmiy tahlil qildilar (Solomon, 1984; C. Lay, 1986; Rothblum, Solomon, 1986). Keyin turli sohalaridagi xorijiy mutaxassislar tomonidan yozilgan "Kechiktirish: nazariya, tadqiqot, yengish" kitobi nashr etildi (Ferreri, Johnson, McCown, 1995). Shuningdek, G'arbda prokrastinatsiya fenomenini o'rganishga qaratilgan ko'plab usullar ishlab chiqilgan (Aitken, 1982; C. Lay, 1986; McCown, 1987; Tuckman, 1991).

Mamlakatimiz psixologlari uchun bu atama nisbatan yangilik bo'lib, olimlarimiz tomonidan u keyingi o'n yilliklarda kengroq o'rganila boshlandi, ammo kechiktirish hodisasi bugungi kungacha deyarli chuqur tadqiq etilmagan. G'arb psixolog olimlari tomonidan kechiktirish hodisasi shaxsiy xususiyat sifatida o'rganilgan va ko'pchilik mualliflar uning insonning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishiga salbiy ta'sir qilishini qayd etadilar. Kechiktirishning oqibatlarini nafaqat faoliyat samaradorligi va ish unumdorligining pasayishida, balki insonning o'z muvaffaqiyatsizligi, aybdorlik hissi va natijalardan noroziligi tufayli yuzaga keladigan o'tkir hissiy tajribalarida ham namoyon bo'ladi.

Kechiktirish hodisasi, C. Ley ta'kidlaganidek, odatda shaxs uchun natijalari juda muhim bo'lgan faoliyatda namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiya fanida qo'llaniladigan "prokrastinatsiya" atamasi insonning bajariladigan muhim ishlarni doimo kechiktirishini, dangasaligini va ishni mudom keyinga qoldirishga moyilligini bildiradi. Qadimgi yunon shoiri Gesiodning "Ishlar va kunlar" nomli asari qishloq xo'jaligiga oid qo'llanmaning o'ziga xos turi bo'lib, unda muallif mehnat faoliyatidagi prokrastinatsiya (kechiktirish)ning zamonaviy fenomeni prototipini quyidagi satrlar orqali ifodalab beradi:

"Ishni ertaga, indingi kunga qoldirmang: dangasalar va ishini har doim kechiktirishni yaxshi ko'radiganlarning omborlari bo'm-bo'sh bo'ladi; boylik mehnatsevarlikdan keladi."

O'zbek xalq ijodiyotining qadimgi namunalarini – ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, hikoyalar, xususan maqollarda mehnat, mehnatsevarlik, ishyoqmaslik, dangasalik va tekinxo'rlik, ishni o'z vaqtida bajarmaslik, har xil bahonalar topish, aldash, kechiktirish haqida ko'plab ibratli so'zlar keltirilgan. "Bugungi ishni ertaga qo'yma", "Barvaqt qilingan harakat hosilga berar barakat", "Dangasaning vaji ko'p, ohangsizning avji ko'p", "Dangasaning g'ayrati ish bitganda qo'zg'aydi", "Ekinni erta ekan, hosilni erta olar", "Qolgan ishga qor yog'ar" kabi maqollar bunga misol bo'la oladi. "Dangasaga ish buyursang, otangdan ortiq aql o'rgatar" maqolida esa nafaqat ishyoqmaslar uchun xos bo'lgan asosiy xususiyat bayon etilgan, balki uning bu xususiyati ustidan yengil piching ham qilingan. Ayrim maqollarda insonni kamol toptiruvchi, uning turmushini farovonlashtiruvchi asosiy vosita mehnat, ish, kasb-kor ekanligi ifodalanadi va ularda dangasalik, ishyoqmaslik, sustkashlik qoralanadi. Misol tariqasida "Bekorichidan xudo bezor", "Bekorichidan hamma bezor" kabi maqollarni keltirish mumkin.

Xalq og'zaki ijodi, shuningdek qadimiy qadriyatlarimiz yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ularda milliy va umum-bashariy fazilatlarni kamol toptirishda muhim ahamiyatga ega. Sharqning ulug' donishmandlari ham odamlarni doimo bir ish bilan mashg'ul bo'lishga da'vat etishgan. Masalan, Hazrati Bahouddin Naqshband o'zigacha o'tgan barcha so'fiy va mashoyihlar ta'limotini puxta egallab, "Dil ba yoru dast ba kor", ya'ni "Alloh qalbingda, qo'ling doimo ishda bo'lsin" shiorini o'ziga dasturilamal qilib olgan.

Prokrastinatsiya (kechiktirish) tushunchasi 1548-yilda nashr etilgan "Oksford ingliz lug'ati"da ham eslatib o'tilgan bo'lib, ma'lumot olish kontekstida kechikish donolik bilan namoyon bo'lgan toqat ma'nosida talqin qilingan. Keyinchalik kechiktirish, ya'ni ishni bajarishni keyinga qoldirish fenomenining salbiy tabiati ruhoniylar va'zlari matnlarida ham aks etgan. Entoni Uoker (Anthony Walker) ba'zi vazifalarni bajarishni kechiktirishga o'ta salbiy munosabat bildirgan va bu hatto uning "Kechiktirishning buyuk yovuzligi" nomli asari nomida ham o'z aksini topgan.

Prokrastinatsiya (kechiktirish) fenomeni sanoat inqilobi davrida, ya'ni qo'l mehnatidan mashina mehnatiga o'tish tufayli ishchilarning kasbiy faoliyati tabiatida tubdan o'zgarishlar yuz bergan davr adabiyotlarida ham qayd etilgan. Ushbu davrdagi kechiktirish hodisasi ingliz shoiri, lug'atshunosi va adabiyotshunosi Semyuel Djonson tomonidan tavsiflangan. Uning fikricha, prokrastinatsiya (kechiktirish) insonning o'z ongidagi pinhoni qarama-qarshiliklarga qaramay, uning xatti-harakatlarida ko'proq yoki kamroq darajada mavjud bo'lgan umumiy zaifliklardan biridir.

Amerikalik psixolog N. Milgram kechiktirishni zamonaviy kasallik deb atagan va uni vazifalarni bajarish yoki qaror qabul qilishni kechiktirish xususiyatining ko'rinishlaridan biri yoki xulq-atvordagi moyillik sifatida ta'riflaydi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, bugungi kunda prokrastinatsiya fenomeni (kechiktirish holati)ning yagona ta'rifi yo'q. Ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilayotgan hodisaning uchta asosiy xususiyatini ajratib ko'rsatish mumkin: maqsadni amalga oshirishni kechiktirish, hissiy diskomfort va irratsionallik. Shu bilan bog'liq holda, kechiktirishni shaxsning ichki dunyosidagi jarayon deb aytish mumkin.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi tahlillar prokrastinatsiya fenomenining qadimiy manbalardan tortib zamonaviy psixologiya ilmi-gacha uzluksiz ravishda o'rganib kelinayotgan murakkab psixologik hodisa ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot nati-jalari shuni anglatadiki, kechiktirish insonning shaxsiy xususiyatlari, motivatsion omillari, o'zini baholash dara-jasi va ijtimoiy sharoitlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning faoliyat samaradorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsa-tadi. Prokrastinatsiyaning oqibatlari nafaqat ish unumdorligining pasayishida, balki shaxsning hissiy holati, mas'uliyat hissi va o'zini anglash jarayonida ham namoyon bo'ladi.

Taklif etilishicha, ushbu hodisani kamaytirish uchun shaxsda vaqtini boshqarish malakalarini rivojlanti-rish, maqsadlarni aniq rejalashtirish, motivatsiyani qo'llab-quvvatlash va o'zini baholashni sog'lomlashtirishga qaratilgan psixologik treninglar joriy etilishi zarur. Shuningdek, ta'lim va mehnat muhitida mas'uliyatni rag'bat-lantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish ham muhim natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Глущенко А. Н. Разница в восприятии слова "procrastination / прокрастинация" в английской и русской языковых картинах мира / А. Н. Глущенко // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2016. – № 1–1. – С. 126–128.
2. Барабанщикова В. В. Перспективы исследования феномена прокрастинации в профессиональной деятельности / В. В. Барабанщикова, Г. И. Марусанова // Национальный психологический журнал. – 2015. – № 4. – С. 130–140.
3. Burka J. B., Yuen L. M. Procrastination. Why you do it. What to do about it now (revised and updated ed.). Cambridge, MA: Da Capo Press Books, 2008. – 240 p.
4. Steel P. The nature of procrastination: a meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure. Psychological Bulletin. – 2007. – No. 133 (1). – Pp. 65–94.
5. Ellis A., Knaus W. J. Overcoming procrastination / A. Ellis, W. J. Knaus. – New York: Signet Books, 1977. – 175 c.
6. Burka J., Yuen L. Procrastination: Why you do it, what to do about it / J. Burka, L. Yuen. – Cambridge: Da Capo, 1983. – 336 c.
7. Lay C. H. Explaining lower-order traits through higher-order factors: The case of trait procrastination, conscientiousness, and the specificity dilemma. European Journal of Personality. – 11. – Pp. 267–278.
8. Lay C. H. At last, my research article on procrastination. Journal of Research in Personality. – 20. – Pp. 474–495.
9. Эллинические поэты VIII–III вв. до н. э. Эпос, Элегия, Ямбы, Мелика / Изд. подг. М. Л. Гаспаров, О. П. Цыбенко, В. Н. Ярхо. Серия: Античная классика. – М.: Ладомир, 1999. – 515 с.
10. O'zbek xalq maqollari. – Fan nashriyoti, 1981. – 354 b.
11. Барабанщикова В. В., Иванова С. А. Влияние организационно-личностных факторов на уровень выраженности прокрастинации у сотрудников современной организации // Экспериментальная психология. – 2016. – Т. 9. – № 1. – С. 95–111.
12. Milgram N. N., Mey-Tal G., Levison Y. Procrastination, generalized or specific, in college students and their parents // Personality and Individual Differences. – № 2. – С. 297–316.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.